Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida individual tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilish sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Soliq tizimining soddalashtirilishi, hisobot berish jarayonlarining raqamlashtirilishi, aholining keng qatlamlariga o'z mehnatini rasmiylashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishi bunga yaqqol misoldir. Xususan, yakka mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar uchun soliq to'lashning yengillashtirilgan tartiblari va patent asosida ish yuritish imkoniyatlari ularning soya iqtisodiyotdan chiqishiga turtki bermoqda.

Xalqaro tajriba ham shuni ko'rsatadiki, individual tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarning soliqqa tortilishida ikki asosiy tamoyil ustuvor hisoblanadi: soddalik va adolat. Soliq stavkalari va hisobot tartiblari qanchalik oddiy va tushunarli bo'lsa, fuqarolarning qonuniy faoliyatga qiziqishi shunchalik yuqori bo'ladi. Shu bilan birga, soliq yukining adolatli taqsimlanishi iqtisodiy subyektlar o'rtasida teng raqobat muhitini ta'minlaydi va davlat budjeti daromadlarining barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, individual tadbirkorlik va yakka mehnat faoliyatini soliq mexanizmi orqali boshqarish masalalarini nazariy jihatdan o'rganish va xalqaro tajribani tahlil qilish, milliy sharoitda samarali yo'llarni belgilash juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat davlat moliya siyosati samaradorligini oshirish, balki aholining iqtisodiy faolligini rag'batlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun ham dolzarbdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Individual tadbirkorlik va mustaqil mehnat faoliyati turlarini soliqqa tortishda an'anaviy soliq tizimini ko'r-korona qo'llash samara bermasligi mumkin. Chunki bu faoliyat shakllari ko'p hollarda noan'anaviy shakllarda, kichik masshtabda va yuqori o'zgaruvchanlikda amalga oshiriladi. Shu bois, bunday faoliyatlarni soliqqa tortishning fundamental asoslarini aniqlash, ularni to'g'ri tartibga solish va maqsadli yondashuvni ishlab chiqish zarur. Ushbu istiqbolda ilmiy va nazariy tadqiqotlar tahlili quyidagi rasmda keltirilgan yo'nalishlarda islohotlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Bunda quyidagi jadvalda keltirilgan tamoyillarga ustuvorlik berish nazariy va ilmiy tadqiqotlar markazida hisoblanadi.

1-jadval. Individual faoliyatni soliqqa tortishda ustuvor tamoyillar¹

№	tamoyil nomi	Mazmuni va ahamiyati
1	Adolat va tenglik	Har bir fuqaroga uning iqtisodiy imkoniyatiga mutanosib soliq yuki yuklanishini nazarda tutadi. Daromadi ko'proq bo'lgan YaTT yoki O'O'B ko'proq, kamroq daromadli subyekt esa kamroq soliq to'lashi orqali nisbiy tenglik va ijtimoiy adolat ta'minlanadi.
2	Soddalik va shaffoflik	Soliq tizimi tushunarli, sodd va fuqarolar tomonidan oson qo'llaniladigan bo'lishi zarur. Masalan, raqamli platforma orqali daromad va to'lovlarni deklaratsiya qilish, soliq miqdorini avtomatik aniqlash. Bu fuqarolar uchun shaffoflik va ishonchni oshiradi.
3	Iqtisodiy samaradorlik	Soliqlar YaTT va O'O'B faoliyatini cheklamasligi, aksincha ularning iqtisodiy faolligini rag'batlantirishi lozim. Soliq siyosatlarini orqali innovatsion, ijtimoiy ahamiyatli yoki ekologik faoliyatlar ustuvorlanishi kerak.
4	Ma'muriy samaradorlik	Soliqni yig'ish mexanizmi davlat va soliq organlari uchun arzon, samarali va yuqori xo'jalik xarajatlari talab qilmaydigan bo'lishi lozim. Masalan, avtomatlashtirilgan nazorat, raqamli hisobotlar.

1 Adam Smith. (1776/1994). *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. New York: Modern Library. (Adolat, tenglik, soddalik tamoyillari ilk nazariy asosi).

Alm, J., & Martinez-Vazquez, J. (2007). *Taxing the hard-to-tax: Lessons from theory and practice*. Amsterdam: Elsevier. (Ma'muriy samaradorlik, soddalik, inklyuzivlik masalalari).

Bird, R. M., & Zolt, E. M. (2019). Tax policy in emerging countries. *Journal of Economic Perspectives*, 33(4), 65–88. <https://doi.org/10.1257/jep.33.4.65>

Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2019). *Taxation of SMEs in OECD and G20 countries*. Paris: OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/9789264314982-en>



5	Inklyuzivlik va intizomni rag'batlantirish	Norasmiy ishlayotgan fuqarolarni rasmiy faoliyatga o'tishiga motivatsiya beruvchi, moslashuvchan soliq rejimlari kerak. Masalan, yengil boshlang'ich to'lovlar, shartli imtiyozlar, ta'lim va maslahat tizimlari.
6	Fiskal barqarorlik	Soliq tizimi byudjet uchun barqaror va prognozlash mumkin bo'lgan daromad manbaiga aylanishi zarur. YaTT va O'O'B sonining o'sishi soliq tushumlarining barqaror o'sishiga olib kelishi lozim.

Individual tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyatini soliqqa tortishda adolat va tenglik tamoyili muhim ustuvorliklardan biri hisoblanadi. Bu tamoyil fuqarolarning real iqtisodiy imkoniyatlarini inobatga olgan holda soliq yukini to'g'ri va munosib taqsimlashni nazarda tutadi. Ya'ni, kimning daromadi ko'proq bo'lsa, u ko'proq soliq to'laydi, daromadi kam bo'lgan shaxs esa mos ravishda kamroq soliq to'laydi. Bu nisbiy tenglikka erishish va fuqarolar o'rtasidagi iqtisodiy notenglikni kamaytirishga xizmat qiladi. Biroq, hamma vaqt ham progressiv soliq stavkasini joriy etishning imkoni bo'lavermaydi, ayniqsa mikrobiznes va norasmiy faoliyatga molik sohalarida.

Shu bois, progressiv stavkalarsiz ham soliqqa tortishda adolat va tenglikni ta'minlashning bir qator samarali mexanizmlari mavjud (2-jadvalga qarang).

2-jadval. Individual faoliyatni soliqqa tortishda adolat va tenglik tamoyilini ta'minlashni yo'nalishlari²

Yo'nalishlar	Hususiyatlari	Maqsad
Daromadga moslashgan yagona to'lov tizimi asosida soliqqa torish	Daromad darajasiga qarab to'lov belgilanadi (kategoriyalar asosida)	Adolatli soliq miqdorini belgilash
Eng kam daromad miqdorlari asosida soliqqa tortish	Aniq daromad talab qilinmasdan, davlat bahosi asosida soliq hisoblanadi	Soddalashtirilgan va ishonchli mexanizm yaratish
Faoliyat turi va hududi asosida soliqqa tortish	Faoliyat joylashuvi va tabiati asosida to'lov belgilanadi	Hududiy va faoliyat bo'yicha farqni hisobga olish
Ijtimoiy xarakterdagi faoliyatlar uchun imtiyozlar joriy etish	Ijtimoiy ahamiyatli faoliyatlar soliqdan ozod etiladi yoki kamaytiriladi	Ijtimoiy tenglik va faollikni rag'batlantirish
Yangi va kam daromadli faoliyatlar uchun yengilliklar taqdim etish	Yangi boshlovchilar va vaqtincha past daromadlilar uchun muddatli yengilliklar	Raqobat va faollikni rag'batlantirish

Avvalo, faoliyat turlarini va ularning o'ziga xosliklarini inobatga olgan holda, daromad guruhlariga moslashtirilgan qat'iy yoki yagona soliq to'lovi tizimini joriy etish mumkin. Bu usulda har bir faoliyat turi va uning daromadi bo'yicha muayyan soliq to'lovi belgilanadi. Xususan, juda kichik faoliyat turlari (tikuvchilik, maishiy xizmat ko'rsatish) uchun eng past, o'rta daradadagi savdo va xizmat ko'rsatish faoliyatlari uchun o'rtacha, yuqori daromadli faoliyatlar uchun esa yuqoriroq to'lov belgilanadi. Bu orqali soliq yuki real imkoniyatlarga moslashtiriladi³.

Ikkinchidan, to'liq daromad aniqlanishi qiyin bo'lgan holatlarda eng kam miqdor bahosi asosida soliq solish amaliyotini joriy etish mumkin. Buning uchun davlat muayyan faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik yoki yillik daromadni belgilash mumkin. Bunday yondashuv amaliyotda progressivlik samarasini beradi, biroq huquqiy jihatdan soddalashtirilgan va aniq hisoblash mexanizmidir⁴.

Uchinchidan, faoliyat turi va geografik joylashuv asosida soliq to'lash tartibini belgilash ham adolatni ta'minlashga yordam beradi. Ya'ni, daromadni hisobga olmasdan, balki faoliyatning qaysi hududda amalga oshirilayotgani va qay darajada daromadli ekaniga qarab to'lov belgilanadi. Masalan, markaziy shahardagi chiroyli binoda joylashgan kafega nisbatan tuman markazidagi kichik sho'rvaxona uchun turlicha, adolatli soliq miqdori belgilanishi mumkin⁵.

To'rtinchidan, ijtimoiy ahamiyatga ega va past daromadli faoliyat turlarini soliqdan ozod etish yoki minimal to'lov joriy qilish mumkin. Bu nafaqat adolatni ta'minlaydi, balki ijtimoiy faollikni rag'batlantiradi. Masalan, nogironlar ta'limi, keksalarga xizmat ko'rsatish, hunarmandchilik kabi faoliyat turlari shular jumlasidandir.

2 Muallif tomonidan o'rganilgan adabiyotlar asosida shakllantirildi

3 Bird, R. M., & Zolt, E. M. (2005). Redistribution via taxation: The limited role of the personal income tax in developing countries. *UCLA Law Review*, 52(6), 1627–1695.

4 Torgler, B. (2007). *Tax Compliance and Tax Morale: A Theoretical and Empirical Analysis*. Edward Elgar Publishing.

Qurbonov, A. A. (2020). O'zbekistonda o'zini o'zi band qilganlarning huquqiy maqomi va soliq rejimlari (Fan nomzodi dissertatsiyasi). Toshkent davlat yuridik universiteti.

5 International Monetary Fund. (2023). Tax Policy Diagnostic Toolkit for Informality (IMF Fiscal Affairs Department). Retrieved from <https://www.imf.org>




Beshinchidan, yangi faoliyat boshlagan, vaqtincha daromadsiz bo'lgan yoki daromadi ancha past fuqarolar uchun muddatli soliq imtiyozlari taqdim etilishi lozim. Bu imtiyozlar 6 oydan 1 yilgacha bo'lishi mumkin va ular to'g'ridan-to'g'ri rasmiy sektorga o'tishni osonlashtiradi.

Umumlashtirib aytganda, YaTT va O'O'Blarni soliqqa tortishda adolat va tenglik tamoyillarini amalga oshirish uchun davlat soliq siyosatini tartibga soluvchi mexanizmlarni soddalashtirishi, faoliyat turlarini real baholash va ijtimoiy ahamiyatli holatlarni e'tiborga olish kabi yo'llarni tanlashi lozim.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar, xususan, Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) va Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IHTT)ning tadqiqotlari turli mamlakatlar tajribasini o'rganib shunday xulosaga kelganki, mikro va kichik biznes subyektlari uchun ushbu model ma'muriy xarajatlarni qisqartirish, daromad shaffofligini oshirish hamda soliq tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash kabi afzalliklarni keltirishi mumkin.

Bu tartib bo'yicha olib borilgan amaliy va empirik tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatadi:



1-rasm. Individual faoliyatni soliqqa tortishning bir bosqichli tartibi (modeli)⁶

Bir bosqichli soliqqa tortish (pass-through taxation) modeli bo'yicha olib borilgan amaliy va empirik tadqiqotlar bu tizimning bir qator afzallik va cheklovlarga ega ekanini namoyon etgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mazkur soliqlash modeli ayniqsa yakka tartibda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar, mikrobizneslar va oilaviy tadbirkorliklar uchun samarali vosita sifatida baholanadi.

Bir qator xalqaro tadqiqotlar bu modelning kichik tadbirkorlik subyektlari uchun ijobiy natija berganini ko'rsatadi. Xususan, Braziliyadagi MEI (Microempreendedor Individual) rejimi, AQShdagi S-Corp va LLC tizimlari, Kanada va Avstraliyadagi flow-through entities modeli bunga misol bo'la oladi. Ushbu tajribalar shundan dalolat beradiki, to'g'ridan-to'g'ri daromadga soliqqa tortish modeli eng avvalo kam resursli, hujjatlashtirish imkoniyati cheklangan tadbirkorlar uchun yengil va samarali hisoblanadi. Bu tartib orqali ular soliq tizimiga qadam tashlab, keyinchalik korporativ modelga o'tishlari mumkin bo'ladi.

Bir bosqichli soliqqa tortish modeli tadbirkorlik muhitini inklyuziv va oddiy qilib shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. U nafaqat soliq yukini yengillashtiradi, balki rasmiylashtirilmagan sektorni iqtisodiy tizimga jalb etishda ham katta imkoniyatlar yaratadi. Ammo uni samarali joriy etish uchun soliq nazorati, raqamli hisobot tizimlari va foydani aniqlashda aniq mezonlar ishlab chiqilishi zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot individual tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilgan shaxslarni soliq mexanizmi orqali boshqarish masalalarini sifatli tahliliga asoslanadi. Asosiy usullar sifatida kuzatuv, jamlash va taqqoslash qo'llaniladi. Kuzatuv orqali mahalliy va xalqaro amaliyot, qonunchilik va raqamli soliq tizimlari tahlil qilinadi. Jamlash orqali turli manbalardan olingan natijalar umumiy nazariy qonuniyatlarga aylantiriladi, masalan, adolat, soddalik, shaffoflik va samaradorlik kabi tamoyillar aniqlanadi. Taqqoslash orqali esa turli mamlakatlardagi soliq rejimlari o'rganilib, ularning kuchli va zaif jihatlari baholanadi. Tahlil jarayonida rasmiy hujjatlar, xalqaro hisobotlar va ilmiy adabiyotlardan foydalaniladi, manba triangulyatsiyasi orqali ishonchlilik ta'minlanadi. Cheklovlar sifatida

6 Internal Revenue Service (IRS). (2023). Pass-Through Entities Overview. <https://www.irs.gov/businesses/small-businesses-self-employed/pass-through-entities>.



rasmiy statistikaning to'liq emasligi va mamlakatlar o'rtasidagi huquqiy farqlar qayd etiladi. Umuman, ushbu metodologik yondashuv orqali soliq mexanizmlarini nazariy jihatdan tahlil qilish va samarali modellarni shakllantirish uchun ilmiy asos yaratiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Individual faoliyatni soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirishda hal etilishi lozim bo'lgan eng muhim masalalaridan biri soliq majburiyatlarini ijtimoiy himoya tizimi bilan bog'lash bo'lib, bu g'oya so'nggi yillarda soliq siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu yo'nalish «soliq orqali ijtimoiy huquqlar» konsepsiyasi (tax-for-rights approach) asosida shakllanib, tadbirkorning soliq majburiyatlari orqali pensiya, tibbiy sug'urta va boshqa ijtimoiy kafolatlarga bo'lgan huquqlarini ta'minlashga qaratilgan. Bunday yondashuv faqat soliq tushumlarini ko'paytirishni emas, balki rasmiylashmagan faoliyatni iqtisodiyotga jalb etish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va uzoq muddatli moliyaviy inklyuziyani ta'minlashni maqsad qiladi.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO, 2021) tomonidan ishlab chiqilgan «Formalizing the Informal Economy» hisobotida ta'kidlanishicha, ko'plab rivojlanayotgan davlatlarda yakka tartibdagi tadbirkorlar va mikrobizneslar soliq to'lash bilan ijtimoiy himoya orasidagi bog'liqlikni sezmaydilar. Binobarin, ularning soliq to'lashga bo'lgan rag'batini past, ijtimoiy xizmatlarga kirish imkoniyati cheklangan. Shu bois, tadqiqotlar ijtimoiy kafolatlardan foydalanish imkoniyatini soliq to'lovlari orqali to'g'ridan-to'g'ri bog'lash mexanizmlarini ishlab chiqishni tavsiya etadi.

Xalqaro tajriba tahlili bu individual tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortish aksariyat mamlakatlarda farqli bo'lsada lekin turli usullradi ijtimoiy himoya bilan bog'langanligini ko'rish mumkin (3-jadvalga qarang).

3-jadval. Xorijiy mamlakatlarda individual faoliyatni soliqqa tortishning ijtimoiy himoya tizimi bilan bog'lash mexanizmlari⁷

Mamlakat	Mexanizm	Afzalliklari	Kamchiliklari
Braziliya	MEI (Microempreendedor Individual): soliq va ijtimoiy to'lovlar birlashtirilgan yagona to'lov	Rasmiylashuv yuqori, ijtimoiy himoya avtomatik	Kam daromadli guruhlar uchun yukli bo'lishi mumkin
Keniya	Hustler Fund: raqamli mikrokreditlar va ijtimoiy badallarni bog'lash	Inklyuziv moliyaviy kirish imkoni, raqamlashtirish	Miqyosan cheklangan, barqarorlik xavf ostida
Germaniya	Ich-AG (o'zini o'zi band qilganlar uchun sug'urta subsidiyalari)	Yangi bizneslar uchun ijtimoiy himoya dastaklari	Byudjetga yuk, uzoq muddatda samarasiz bo'lishi mumkin
Turkiya	Bağ-Kur: yakka tadbirkorlar uchun alohida ijtimoiy himoya rejimi	To'liq huquqli pensiya va tibbiy himoya	Salmoqli majburiy to'lovlar
Fransiya	Auto-entrepreneur rejimi: to'liq raqamlashtirilgan va integratsiyalashgan tuzilma	Soliq va ijtimoiy sug'urta to'lovlari yagona platformada	Soliqdan qochish imkoniyati cheklanmagan
Indoneziya	Jaminan Kesehatan Nasional: tadbirkorlardan majburiy sug'urta badallari	Milliy tibbiy sug'urta qamrovini kengaytirgan	Ma'muriy kuzatuv yetishmovchiligi

Xalqaro tajriba shundan dalolat beradiki, individual tadbirkorlikni soliqqa tortish tizimini ijtimoiy himoya bilan bog'lash yo'lidagi sa'y-harakatlar ko'plab mamlakatlarda amalga oshirilmoqda va bu borada turli modellar sinovdan o'tkazilgan. Braziliyadagi MEI (Microempreendedor Individual) tizimi eng muvaffaqiyatli misollardan biri bo'lib, u yakka tadbirkorlar uchun soddalashtirilgan soliq va ijtimoiy sug'urta to'lovlarini birlashtirgan. Bu tizim orqali fuqaro soliq to'lar ekan, avtomatik tarzda pensiya, tibbiy yordam va boshqa ijtimoiy xizmatlarga huquqqa ega bo'ladi. Braziliya tajribasi shuni ko'rsatdiki, to'lov miqdorining nisbatan pastligi va to'lov orqali aniq ijtimoiy foyda olish imkoni rasmiylashuv darajasini oshirgan⁸.

Keniyada esa Hustler Fund orqali raqamli mikrocredit, soliq va ijtimoiy badallar integratsiya qilingan. Unda tadbirkor mobil ilova orqali qarz oladi va bu bilan birga ijtimoiy to'lovlarni amalga oshirib, davlat tomonidan qayd etiladi. Bu keng omma uchun moliyaviy inklyuziyani ta'minlashda muhim vosita bo'lgan⁹.

7 Muallif tomonidan shakllantirildi

8 Brazil Federal Revenue. (2021). *MEI Statistical Report*.

9 Kenya Treasury. (2022). *Hustler Fund Implementation Report*.



Yevropa mamlakatlarida, xususan, Fransiya-dagi Auto-entrepreneur tizimida soliq va ijtimoiy to'lovlar yagona raqamli platforma orqali boshqariladi. Bu modelda tadbirkorlar o'z daromadlarini onlayn tarzda deklaratsiya qilish bilan birga pensiya va tibbiy sug'urta badallarini ham avtomatik tarzda to'laydi¹⁰. Germaniya-dagi Ich-AG dasturi esa ishsiz shaxslarning o'zini o'zi band qilishini rag'batlantirishga qaratilgan bo'lib, ularga davlat tomonidan ijtimoiy sug'urta to'lovlari uchun subsidiyalar taqdim etiladi¹¹.

Turkiya-dagi Bağ-Kur tizimi ham individual tadbirkorlar uchun mo'ljallangan bo'lib, ularni davlat ijtimoiy himoya tizimiga to'liq jalb etadi. Ammo bu tizimda to'lovlar nisbatan yuqori bo'lib, ayrim mikrobizneslar uchun og'irlik qilishi mumkin¹².

Shu sababdan bu borada xalqaro tajriba quyidagilarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- Mikro-pensiya hisoblash tizimi joriy etiladi (mehnat staji asosida avtomatik hisob yuritishni).
- Raqamli ijtimoiy reyting mexanizmi bilan har bir tadbirkor ijtimoiy himoyadagi holati va potentsial kafolatlarini bilib turadi.
- Soliq to'lash orqali avtosug'urta — kamida 3 oy soliq to'laganlar uchun tez tibbiy yordam yoki vaqtincha mehnatga layoqatsizlik to'lovi¹³.

Umuman olganda, xalqaro tajriba va nazariy ilmiy tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, individual tadbirkorlikni va individual mehnat faoliyatini soliqqa tortishda ijtimoiy himoya bilan bog'lash nafaqat davlat byudjetini barqarorlashtiradi, balki iqtisodiy islohotlarni ijtimoiy adolat bilan uyg'unlashtiradi.

Individual faoliyatni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirishda birinchi navbatda hal etilishi kerak bo'lgan institutsional masala – bu YaTT va O'O'B-ning huquqiy maqomini aniq va to'g'ri belgilab olishni nazarda tutadi.

Birinchi navbatda YaTTning nazariy hamda amaliy jihatdan eng maqbul ta'rifini ko'rib chiqadigan bo'lsak, YaTTning huquqiy maqomi u faoliyat yuriadigan davlatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, ijtimoiy siyosat ustuvorligi va ma'muriy tizimning qamrov darajasiga qarab turlicha belgilanadi. Ammo umumiy nazariya va xalqaro tajribaga ko'ra, YaTTning huquqiy maqomi quyidagilarni o'zida mujassamlashtirishi kerakligi ta'kidlangan, xususan:

- yakka tartibda faoliyat olib boradigan shaxslar o'z shaxsiy nomlaridan faoliyat yuritishi;
- moliyaviy hisob-kitob va soliq majburiyatlarini shaxsiy daromad darajasida bajarishi;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda kichik biznesning innovatsiya, bandlik va mahalliy iqtisodiyotdagi rolini ta'minlay olishi kabilar.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar nazariy va amaliy tajribalar asosida individual tadbirkor (YaTT)ning huquqiy maqomi yuzasidan bir qator o'xshash ta'riflarni keltirgan. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) tadqiqotlarida, YaTT yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan, faoliyatdan olinadigan barcha daromadlar to'g'ridan-to'g'ri tadbirkorning shaxsiy daromadi sifatida soliqqa tortiladigan subyekt sifatida ta'riflanadi. Ya'ni, YaTT mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida tan olinsa-da, u alohida yuridik shaxs emas, balki shaxsiy javobgarlik va tavakkallik asosida faoliyat yuritadi.

Shuningdek, Yevropa Komissiyasi ta'rifiga ko'ra, YaTT bu mustaqil iqtisodiy faoliyat yurituvchi shaxs bo'lib, u o'z nomidan va o'z javobgarligida bozor munosabatlarida ishtirok etadi. YaTT yuridik shaxs maqomiga ega emas, ammo u qonunan mustaqil ravishda shartnomalar tuzish, mulkka egalik qilish, litsenziya olish va soliq majburiyatlarini bajarish huquqiga ega shaxsiy subyekt sifatida tan olinadi.

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) esa YaTTni rasmiy iqtisodiyotga o'tishdagi asosiy huquqiy shakllardan biri bo'lib, davlat tomonidan tan olingan, lekin yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan shaxsiy iqtisodiy subyekt sifatida tarifiyladi. U fuqaroning mustaqil mehnat faoliyatini amalga oshirishini, soliq to'lashini va ijtimoiy himoya tizimiga jalb etilishini ta'minlashda huquqiy asos yaratishini nazarda tutadi.

Individual mehnat faoliyati, ya'ni o'zini o'zi band qilgan shaxsning huquqiy maqomi borasidagi nazariy, ilmiy hamda amaliy tadqiqotlar tahlili uning YaTTga nisbatan o'xshash ammo, faoliyat doirasi va soliqqa tortish tartibida ayrim sezilarli farqlar borligini ko'rsatdi. Xususan, adabiyotlarda individual mehnat faoliyati (self-employed, freelancer, gig worker) – bu mustaqil ravishda, ya'ni ish beruvchi bilan mehnat shartnomasiga kirmasdan, o'z mehnati asosida iqtisodiy faoliyat olib boradigan shaxsning mehnat shakli sifatida ta'riflanadi. Nazariy va ilmiy jihatdan, bu faoliyat turiga keltiriladigan ta'riflar asosan mehnat iqtisodiyoti, huquqshunoslik va ijtimoiy siyosat sohalari asosida shakllangan.

Individual mehnat faoliyati nazariy jihatdan klassik mehnat munosabatlaridan farq qiladi. Agar an'anaviy ish joyida xodim ish beruvchiga bo'ysinishi, vaqt va joydagi ish rejimini qabul qilish orqali o'z mehnatini taqdim

10 France URSSAF. (2023). *Auto-Entrepreneur Portal and Statistics*.

11 German Federal Ministry for Labour and Social Affairs. (2020). *Ich-AG Scheme Evaluation*.

12 Republic of Turkey Social Security Institution. (2021). *Bağ-Kur Data Overview*.

13 International Labour Organization. (2021). *Formalizing the Informal Economy*. Geneva: ILO.
OECD. (2022). *Taxing Wages and Social Contributions*. Paris: OECD Publishing.



Xulosa qilib aytganda, dunyo mamlakatlari o'zini o'zi band qilgan shaxslarni alohida iqtisodiy subyekt sifatida huquqiy maqomga ega deb biladi va ularning rasmiylashuvi hamda faoliyatini qonuniylashtirish uchun sodda, lekin aniq soliq va ijtimoiy mexanizmlar yaratgan. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotning samaradorligi va barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Individual tadbirkorlik va mehnat faoliyatini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirishda isloh qilinishi zarur bo'lgan institutsional masalalardan ikkinchisi ushbu faoliyat turlarini soliqqa tortish tartibi (rejimin) to'g'ri belgilash hisoblanadi.

Nazariy, ilmiy hamda empirik tadqiqotlar individual tadbirkorlik faoliyatini (YaTT) soliqqa tortishda qo'llaniladigan soliq rejimlari iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy jihatdan turli modellarga asoslangan bo'lib, ularning har biri muayyan sharoitda turlicha samara ko'rsatishi mumkin.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik (YaTT) faoliyatini soliqqa tortishda asosan ikki xil rejim mavjud bo'lib, bular soddalashtirilgan soliq rejimi va umumiy belgilangan rejim hisoblanadi.

Soddalashtirilgan rejimda soliq hisob-kitobi oson, xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar talab qilinmaydi, aylanma yoki belgilangan stavka asosida hisoblanadi. Bu rejim mikrobiznes va yangi faoliyat boshlagan YaTTlar uchun qulay hisoblanadi. U kam xarajatli, ma'muriy jihatdan sodda hamda oson bo'lganligi uchun rasmiylashuvni rag'batlantiradi.

Umumiy rejimda esa soliq real daromad va xarajatlarni asosida hisoblanadi. Hisob-kitob yuki yuqori, buxgalteriya yuritish talab etiladi. Bu rejim moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni oshiradi, lekin kichik tadbirkorlar uchun og'irlik qilishi mumkin.

Amaliyotda soddalashtirilgan rejimning keng qo'llanilishi uning ma'muriy soddaligi, tezkorligi, institutsional ishonchni oshirishi va rasmiylashuvga rag'bat berishi bilan izohlanadi. Soddalashtirilgan rejimni joriy etishda bir qator soliq turlari mavjud bo'lib, quyidagi jadvalda har bir soliq turining nazariy asosi, amaliy jihatlari, kuchli va zaif tomonlari keltirilgan.

5-jadval. Soddalashtirilgan rejim soliqda qo'llaniladigan asosiy soliq turlari

Soliq rejimi	Kuchli tomonlari	Zaif tomonlari
Soddalashtirilgan soliq rejimi	Ma'muriy yuk kam, hisob-kitob oson; yangi faoliyat boshlaganlar uchun qulay; rasmiylashuvni rag'batlantiradi; soliq xarajatlari kam.	Tizim rivojlanayotgan faoliyatga moslashmaydi; faoliyat turlari bo'yicha farq inobatga olinmaydi; soliq adolatiga zid holatlar yuzaga kelishi mumkin.
Umumiy daromad solig'i rejimi	Soliq adolati ta'minlanadi; xarajatlarni hisobga olish imkoni bor; moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni oshiradi; moliyaviy tuzilmalar uchun ishonchli.	Ma'muriy va hisob-kitob yuki yuqori; to'liq buxgalteriya yuritish talab qilinadi; kam daromadli subyektlar uchun og'irlik qiluvchi tizim bo'lishi mumkin.
Aylanmadan soliq rejimi	Hisob-kitob juda sodda; xarajatni hisoblashga ehtiyoj yo'q; tadbirkorlikni rasmiylashtirishda yengillik yaratadi.	Toza foyda hisobga olinmaydi; yukori xarajatli faoliyatlarda noadolatli soliq yuki yuzaga keladi; faoliyat rentabelligi inobatga olinmaydi.
Qat'iy belgilangan (muqarrar) soliq	Ma'muriy jihatdan juda yengil; soliq miqdori aniq va prognozlashtirish mumkin; soha va hudud kesimida qo'llash qulay.	Soliq yuki real foydaga mos kelmasligi mumkin; pasaytirilgan daromadli faoliyatda salbiy ta'sir qiladi; soliq neytralligi buzilishi mumkin.

Yuqoridagi jadval asosida shunday xulosa chiqarish mumkinki, har bir soliq rejimi muayyan iqtisodiy, ma'muriy yoki ijtimoiy sharoitga mos ravishda ishlab chiqilgan bo'lib, ularni "bir xil tartibda hammaga tatbiq etish" samarali natija bermaydi. Masalan, soddalashtirilgan soliq rejimi yangi yoki kichik faoliyat boshlagan YaTTlar uchun juda qulay hisoblanadi, ammo faoliyat kengayganida va daromad o'sganida bu rejim o'z samarasini yo'qotishi mumkin. Umumiy daromad solig'i esa shaffoflik va hisobdorlik nuqtai nazaridan ideal tuzilma sanaladi, lekin kichik tadbirkorlar uchun yuqori hisob-kitob yukini yuklashi mumkin.

Aylanmadan soliq rejimi ko'p hollarda mikrobizneslar uchun mos keladi, chunki ular to'liq hisob-kitob yuritishga qobiliyatli emas. Biroq, foydasi kam, ammo aylanmasi katta faoliyatlarda noqonuniy soliq yuki yuzaga kelishi mumkin. Qat'iy belgilangan soliq esa oddiy va ma'muriy jihatdan samarali bo'lsa-da, soliq adolatiga zid holatlar yuzaga kelishi mumkin.

Shuning uchun eng maqbul yondashuv gibrid va moslashuvchan soliq rejimi bo'lib, unda faoliyat darajasi, soha xususiyati va hududiy omillar inobatga olingan holda rejim tanlanishi kerak. Har bir rejimning zaif tomonlarini yumshatish maqsadida bosqichma-bosqich o'tish mexanizmlari, avtomatik hisoblash vositalari va raqamli platformalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv YaTT faoliyatini rasmiylashtirishni rag'batlantiradi, soliq tushumlarini barqarorlashtiradi va tadbirkorlar uchun adolatli soliq muhitini yaratadi.



Umumlashtirib aytganda, o'zini o'zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortishdagi samarali modellar ikkita asosiy tamoyilga suyanadi: (1) ma'muriy yengillik va (2) ijtimoiy himoyaga kirish imkoni. Nazariy jihatdan qaralganda, ularni yuridik shaxslardan farqli ravishda, to'g'ridan-to'g'ri shaxsiy faoliyat sifatida baholash lozim. Bu esa ham soliq adolati, ham ishonchli tushumlar, ham ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Individual tadbirkorlik va mustaqil mehnat faoliyatidagi daromadlarni soliqqa tortishda "adolatlilik", "ta'sirchanlik" va "samaradorlik" kabi soliq prinsiplarining uyg'unligi aholini rasmiy mehnat munosabatlariga jalb qilish, norasmiy sektorni qisqartirish va daromadlarning ochiqqligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Daromadlarga soliq solishda odatdagi yuridik shaxslarga qo'llaniladigan yondashuvlar individual tadbirkorlik uchun har doim ham mos kelmaydi, shu boisdan maxsus oddiylashtirilgan soliq rejimlari va soliq hisob-kitob usullarining qo'llanilishi nazariy jihatdan asoslangan yondashuv hisoblanadi.

Ijtimoiy adolatni ta'minlash maqsadida past daromadli aholini soliq yukidan himoya qilish, shu bilan birga yuqori daromadli subyektlar uchun progressiv yoki advalor shakldagi soliq stavkalarini joriy etish orqali soliq siyosatining qayta taqsimlovchi vazifasi ta'minlanadi.

Soliq solishning me'yoriy va amaliy asoslari milliy mehnat bozorining holati, aholi bandligi, umumiy ish haqi dinamikasi va inflyatsiya darajasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, YaTT hamda O'O'B faoliyatini soliqqa tortish mexanizmlarini moslashuvchan va adolatli shaklda belgilashni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Adam Smith. (1776/1994). An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. New York: Modern Library. (Adolat, tenglik, soddalik tamoyillari ilk nazariy asosi).
2. Alm, J., & Martinez-Vazquez, J. (2007). Taxing the hard-to-tax: Lessons from theory and practice. Amsterdam: Elsevier. (Ma'muriy samaradorlik, soddalik, inklyuzivlik masalalari).
3. Bird, R. M., & Zolt, E. M. (2019). Tax policy in emerging countries. Journal of Economic Perspectives, 33(4), 65–88. <https://doi.org/10.1257/jep.33.4.65>
4. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2019). Taxation of SMEs in OECD and G20 countries. Paris: OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/9789264314982-en>
5. Bird, R. M., & Zolt, E. M. (2005). Redistribution via taxation: The limited role of the personal income tax in developing countries. UCLA Law Review, 52(6), 1627–1695.
6. Torgler, B. (2007). Tax Compliance and Tax Morale: A Theoretical and Empirical Analysis. Edward Elgar Publishing.
7. Qurbonov, A. A. (2020). O'zbekistonda o'zini o'zi band qilganlarning huquqiy maqomi va soliq rejimlari (Fan nomzodi dissertatsiyasi). Toshkent davlat yuridik universiteti.
8. International Monetary Fund. (2023). Tax Policy Diagnostic Toolkit for Informality (IMF Fiscal Affairs Department). Retrieved from <https://www.imf.org>
9. Internal Revenue Service (IRS). (2023). Pass-Through Entities Overview. <https://www.irs.gov/businesses/small-businesses-self-employed/pass-through-entities>.
10. Brazil Federal Revenue. (2021). MEI Statistical Report.
11. Kenya Treasury. (2022). Hustler Fund Implementation Report.
12. France URSSAF. (2023). Auto-Entrepreneur Portal and Statistics.
13. German Federal Ministry for Labour and Social Affairs. (2020). Ich-AG Scheme Evaluation.
14. Republic of Turkey Social Security Institution. (2021). Bağ-Kur Data Overview.
15. International Labour Organization. (2021). Formalizing the Informal Economy. Geneva: ILO.
16. ECD. (2022). Taxing Wages and Social Contributions. Paris: OECD Publishing.
17. Boeri, T., & van Ours, J. (2013). The Economics of Imperfect Labor Markets (2nd ed.). Princeton University Press.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>